



Date: 30 April 2026



ALISHER NAVOIY IJODINI HAMKORLIKDA O'QITISH TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O'RGANISH

Rustamova Lobarxon Ibragimovna

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tuman Maktabgacha va maktab ta'limi
bo'limiga qarashli 1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi, ADPI mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida hamkorlikda o'qitish texnologiyasi haqida ma'lumot berilgan. Dastlabki hamkorlik pedagogikasiga asos slogan amerikalik pedagog va faylasuf Djon Dyui, shuningdek hamkorlik pedagogikasining tavsifi o'zbek pedagogikasida qo'llanilgani haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: texnologiya, hamkorlik pedagogikasi, ekspert, radif, qofiya, ruboiy, tamoyil, nasr, epik.

Ta'limda hamkorlikda o'qitish texnologiyalari hamkorlik pedagogikasi tamoyillariga asoslanadi. Hamkorlik pedagogikasi dastlab pragmatizm falsafiy yo'nalishi vakili, amerikalik pedagog va faylasuf Djon Dyui tomonidan o'tgan asrning birinchi choragida tavsiya qilingan. Lekin unga bo'lgan qiziqish, keng ko'lamli e'tibor qariyb yarim asr o'tgach (XX asr 70-80-yillarida) yuzaga keldi. G'arb va Sharq mamlakatlarida mazkur yangi yondashuv bo'yicha maqolalar, kitoblar nashr etila boshlandi. Aslida g'oyaning ildizlarini unda oldingi yuzyillikdan axtarish to'g'ri bo'ladi. "K.D. Ushinskiy, N.P. Pirogov, L.N. Tolstoy, S.T. Spatskiy, V.A. Suxomlinskiy, A.S. Makarenko, J.J. Russo, Ya. Korchak, K. Rodjers, E. Bernlarning pedagogik nazariyalarida ham hamkorlik pedagogikasining turli jihatlarini ko'rish mumkin. Bu yo'nalish vakillari ta'lim-tarbiyaga turlicha qarashda bo'lsalar-da, ularning asosiy maqsadlari ta'lim tizimini "gumanizatsiyalash (insonparvarlashtirish)dan" iborat edi".

Hamkorlik pedagogikasining tavsifi o'zbek pedagogikasida ilk bor professor Qozoqboy Yo'ldoshev tadqiqotida batafsil izohlandi. Olim oldingi bobning fasllarida bir necha bor tilga olganimiz "Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi hamda "Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari" nomli qollanmasida ushbu g'oya mohiyatini yoritgan. Biz uchun yanada ahamiyatlisi qarashlarini Adabiyot o'qitish bilan aloqadorlikda asoslagan. Bevosita ta'lim texnologiyasi sifatida bir qancha ishlar (monografiya, ilmiy risola, qo'llanmalar) yaratilgan bo'lsa-da, N.A. Muslimov, M.H. Usmonboyeva, D.M. Sayfurov, A.B. To'rayevlarning "Innovation ta'lim texnologiyalari" o'quv-metodik qo'llanmasi boshqa texnologiyalar qatori mazkur didaktik tizim haqida batafsil va atroflicha ma'lumot bergani bilan diqqatga sazovordir. Qo'llanmada hamkorlik ta'limi



texnologiyasining ta'limiy mazmun-mohiyati; uning o'ziga xos tamoyillari, muhim belgilar va tarkibiy unsurlari; bu didaktik tizimda tayanch konspekt va uni shakllantirish yo'l-yo'riqlari; shuningdek, "Ajurli arra" strategiyasi haqida metodist va o'qituvchilarga yetarli ma'lumotlar beriladi. Kitobda shunday ta'rif keltiriladi: "Hamkorlik ta'limi – o'quv jarayonida talabalarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birgalikda o'zlashtirishlari, o'zaro rivojlanishlari, "pedagog-talaba(lar)" munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini ifodalovchi ta'lim bo'lib, uning asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini jamoada, kichik guruhlarda yoki juftlikda birgalikda, o'zaro hamkorlikda bajarish".

Shuningdek, J.Yo'ldoshev, S.Usmonovlarning "Pedagogik texnologiya asoslari" qo'llanmasida hamkorlik texnologiyasi haqida o'ta qisqa ma'lumot berilgan bo'lsa-da, kitobdagi nazariy va amaliy xarakterdagi fikr, ma'lumotlardan har qanday texnologiyani shakllantirish uchun foydalanish mumkin.

Adabiyotlarda ta'lim jarayonida qo'llanadigan hamkorlikda ishlashning keng iste'fodagi uch variant beriladi:

Birinchisi jamoada bilim olish bo'lib, sinfdagi o'quvchining yutuq, kamchiligi va xatolaridan jamoa xabardor bo'ladi, chunki u mansub bo'lgan kichik guruh har bir a'zosining topshiriqlarni bajarishi, tavsiya etilgan o'quv materialining puxta egallashidan manfaatdor. Negaki kichik guruhning erishadigan yutuqlari har bir o'quvchi va uning faolligi, sinfdoshlari oldiga qo'yilgan bo'ladi;

Ikkinchisi esa kichik guruhda bilim olishdir. Sinfdagi o'quvchilar muayyan miqdorda bir necha nafar bo'lib, kichik guruhlariga birlashadilar hamda o'qituvchi tomonidan havola qilingan o'quv materialini topshiriqlari bilan ishlaydilar. Har bir o'quvchi guruhida avval o'quv materialini alohida ishlaydi, keyin esa guruhdan saralangan bittadan o'quvchi boshqa yuzasidan ekspert o'laroq sinfdoshlariga tushuntiradilar. Shundan so'ng yana o'z guruhlariga qaytishib, qo'shni guruhdan o'rgangan bilim va ma'lumotlarni o'z jamoadoshlariga yetkazadi. Jamoadagilar bu ekspert guruhdoshini diqqat bilan eshitishlari, muhim ma'lumotlarni fandan tutgan daftarlariga yozib borishlari kerak bo'ladi. Dars tugagandan so'ng adabiyot o'qituvchi istalgan o'quvchidan o'zlashtirilgan mavzu yuzasidan savollar berishi o'rinli bo'ladi.

Uchinchisi juftlikda ishlash bo'lib, o'qituvchi o'quvchilarni ikkilik, ya'ni juftliklarga bo'ladi. Juftliklarga bitta yaxlit mavzu yuzasidan alohida topshiriq beriladi. Ikki o'quvchi birga ishlash asosida o'zlariga havola qilingan o'quv materialini birgalikda o'zlashtiradilar hamda keyin kichik guruh shaklidagi jamoa huzurida axborot beradilar.

Misol tariqasida 5-sinfda hamkorlik texnologiyasiga asoslangan uch soatga mo'ljallangan "Navoiy moduli"ni o'qitishni ko'rib chiqamiz. Bu sinfdan Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonidan parcha – "Sher va Durroj" masala berilgan. Biz o'quvchilar faoliyatini to'rt ko'rinishda tashkil etdik: yakka tartibda, juftlikda,





kichik guruhlarda, sinf jamoasida. Savol tug'ilishu mumkin: hamkorlik texnologiyasida o'quvchilarga yakka tartibda yondashilmas, topshiriqlar berilmas edi, nima uchun bu yerda ushbu shakl qo'shilmoqda? Gap shundaki, o'quvchilarning yakka tartibdagi faoliyati texnologiyaning dastlabki – tayyorgarlik bosqichi bo'lib, u uyga berilgan vazifani bajarish, topshiriqlarni ado etish shaklida keyingi dars mashg'ulotlari uchun zamin hozirlaydi.

Bu sinf dasturiga ko'ra "Bolalikning beg'ubor olami" bo'limi yakunlangandan keying – "Mumtoz adabiyot bo'stoni" bo'limi Alisher Navoiy ijod namunasini o'rganish bilan boshlanadi. Oldingi bo'lim bo'yicha mustahkamlash darsi oxirida o'qituvchi sinfdagi o'quvchilarni teng to'rt guruhga ajratadi va har biriga keyingi dars uchun topshiriqlar beradi, ya'ni kichik guruhlar shakllantiriladi. Kichik guruhlarga quyidagicha topshiriqlar berildi:

1-guruhga: mamlakatimiz va xorijiy mamlakatlarda Alisher Navoiyning nomini abadiylashtirish uchun qanday ishlar qilingani haqida ma'lumotlarni topib kelish.

2-guruhga: uyda Alisher Navoiy hayoti va ijodi yuzasidan berilgan ma'lumotlarni o'qib, Mirkarim Osimning "Zulmat ichra nur" qissasidagi tafsilotlar bilan solishtirib, o'rganib kelish.

3-guruh: bolalaikdan Alisher Navoiyning qobiliyatli, zehni o'tkir, she'riyatga moyilligi haqida ma'lumotlar: rivoyat, hikoyalarni o'rganib kelish.

4-guruh: adibning qanday asarlar yozgani, ular nima haqida ekani to'g'risida ma'lumot topib kelish.

Barcha o'quvchilar yakka tartibda shu tarzda uy vazifasini bajardilar va bu hamkorlikda ishlash texnologiyasining debochasi bo'ldi. Birinchi guruhdagi o'quvchilar uyda yakka tartibdagi izlanishlarini avval kichik guruh ichidagi juftlikda o'zaro o'rtoqlashdilar, ma'lumotlarni qiyoslab, birgalikda ro'yxat tuzadilar. Keyin juftliklarning o'zaro ma'lumot almashish amalga oshiriladi, shu asnoda nisbatan mukammal javob to'plagan juftlikning ro'yxati boshqalardagi dalillar bilan to'ldirildi va yaxlit ularga berilgan topshiriqning yaxlit javobi shakllandi.

Bu paytda ikkinchi guruh ham o'z topshirig'i ustda ish olib bordi. Ular yurtimizda qaysi hududda, tashkilotda buyuk adib nomi berilgan joylar borligi, Navoiy haykali mamlakatimiz shaharlari hamda dunyo davrlarlarining qaysilarida o'rnatilgani haqida topgan ma'lumotlarini avval juftlikda, keyin kichik guruhda o'zaro almashdilar.

Bu ikki kichik guruhga baqamti (parallel) ravishda ishlayotgan uchinchi guruh bolalaikdan Alisher Navoiyning qobiliyatli, zehni o'tkir, she'riyatga moyilligi haqida ma'lumotlarni tarix, badiiy adabiyot rivoyatlar asosida o'rganib keldilar. Bolalaikdan Alisher Navoiyning qobiliyatli, zehni o'tkir, she'riyatga moyilligi haqida ma'lumotlarni tarix, badiiy adabiyot, rivoyatlar asosida o'rganib keldilar. Ma'lumotlarni yig'ishda o'quvchilar maktab kutubxonasi va ota-onalari hamda buvi va buvajnlardan eshitgan rivoyat, afsonalarni yozib keldilar. Bu ham bo'lmasa, uydagi





kattalar yordamida internet tizimidagi materiallardan foydalanadilar. Juftlikda ikki o'quvchi topganlarini, so'ng kichik guruhda juftliklar o'zaro manbalar ro'yxatini tuzadilar, vaqtga qarab ular bilan tanishishadi.

To'rtinchi guruhdagi o'quvchilar uyda yakka tartibda adibning qanday asarlar yozgani, ular nima haqida ekani to'g'risida ma'lumot izlab topib, o'zaro hamkorlikdagi mashg'ulotga tayyorlandilar. Bu topshiriq u qadar qiyinchilik tug'dirmaydi, chunki turli kitoblar, darslik, qo'llanma va boshqa manbalarda istagancha ma'lumotlarni topish mumkin. Adib hayoti va ijodi bo'yicha birinchi soatda bu guruhdagi o'quvchilar ham oldin juftliklarda, so'ng kichik guruhda ma'lumot almashishni amalga oshirdilar.

Sinfidagi o'quvchilar soniga ko'ra kichik guruhda 6-8 a'zo bo'lishi mumkin. Bir guruhdagi o'quvchilardan bir nafari ekspert sifatida boshqa guruhga o'tadi hamda Navoiy hayoti va ijodi yuzasidan ma'lumotlar bo'yicha sinfdoshlariga (boshqa kichik guruhdagilarga) ma'lumot beradi, ayni paytda ularning ma'lumotlarini ham o'rganib o'z jamoasiga qaytadilar va ular bilan o'z jamoasiga tanishtiradilar. Kichik guruhdagi jamoa ekspert o'rtoqlarining adib yuzasidan boshqa jamoalardagi ma'lumotlarni diqqat bilan tinglaydilar, zarur bo'lib qolsa, savollar beradilar.

Kichik guruhlardan jamoa bo'lib ishlashga o'tganda sinov tariqasida hamda butun sinf e'tiborini tortish uchun mavzu yuzasidan istalgan guruh mavzusi bo'yicha xohlagan jamoadan yoki o'quvchidan eng muhim va daqiq, ayni paytda muammoli tarzda savollarni so'rash mumkin. Muammoli bo'lgani bois uning javobi, muhokamasi butun sinfni qamrab olishi mumkin va bu bizning muvaffaqiyatimiz sanaldi. Masalan, biz quyidagicha savolni o'rta tashladik: "Nima deb o'ylaysiz: kichik Alisherning bu qadar nodir qobiliyatli, ziyrak, zakiy bo'lib o'sishida oila a'zolaridan kimning ta'siri, hissasi ko'proq bo'lishi mumkin?" Kimdir otasini aytadi, chunki qobiliyatlar otadan o'tadi; kimdir onasini ko'rsatadi: sababi go'daklikdan ona aytgan allalar, ertak va hikoyalar bola Alisherga ta'sirini qoldirgan. Yana boshqasi tog'alarining shoir tabiatliligidan kelib chiqib ularni ko'rsatsa, boshqa bir o'quvchi ta'lim bergan ustozlarini afzal bilishlari mumkin. Har qanday mantiqli fikr ma'qullanishi va alqanishi kerak, toki o'quvchilarda fikr aytishga, mulohaza yuritishga rag'bat bo'lsin. Shuningdek, jamoaviy ta'lim shaklida o'quvchilar ekspert o'rtoqlaridan boshqa kichik guruh topshirig'i yuzasidan bergan savollariga ololmagan bo'lsalar, o'zaro bir-birlari bilan savol-javob qilishlari ham mumkin bo'ladi va bu ham muhim nuqtadir.

Dars so'nggida ekspertlar hamda jamoa boshqa alohida o'quvchi, kichik guruhlar izlanishlarini, o'qituvchi esa barcha kichik guruh – butun sinf faoliyatini baholadi. Yutuqlar e'tirof etildi, kamchiliklar tushuntirildi, xatolar tuzatildi.





Date: 30 April 2026

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axatova D. Pedagogik faoliyatda hamkorlik pedagogikasining o'rni va ahamiyati. Pedagogy of cooperation in improving the quality of education: international experience and modern approaches. International scientific-practical conference, November 13, 2023. 101-102-b.
2. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Innovation ta'lim texnologiyalari – T: 2015.(208)
3. Йўлдошев Ж., Усмонов С. Педагогик технология асослари. Т.:Ўқитувчи, 2004.
4. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Innovation ta'lim texnologiyalari. 51-b.
5. <https://oz.sputniknews.uz/20240209/navoiy-haykallari-qaysi-shahar-va-mamlakatlarda-ornatilgan-foto-42420979.html?ysclid=m1qka1q15n644652251>
6. <https://erkak.uz/uz/post/mir-alisher-navoiy-haqida-15-ma-lumot-va-bir-rivoyat>
7. <https://mbaza.uz/foydali/navoiy-haqida-faktlar-hikmatlari-va-rivoyatlari/>